


INNOVATION SCIENCE AND TECHNOLOGY



Scopus || Electronic journal specializing in Scopus

ISSUE 6

 Acceptance of papers June, 2025



**Acceptance of
papers**

Published monthly



Topics

economics,
technology, social
sciences



EDITOR-IN-CHIEF:

Mirzaliev Sanjar Makhmatjon ugli

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Makhmudov Nosir Makhmudovich
DSc., Prof., Academician

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli – Senior
lecturer at TSUI

THE SCIENTIFIC-POPULAR ELECTRONIC
JOURNAL **"INNOVATION SCIENCE AND
TECHNOLOGY"** HAS BEEN REGISTERED
UNDER THE NUMBER **C-5669633** BY THE
AGENCY FOR INFORMATION AND MASS
COMMUNICATIONS (AOKA) OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN, EFFECTIVE
FROM OCTOBER 9, 2024.

CONTACTS

Phone: **97-748-70-03**

Website: <https://ist-journal.uz>

Email: munis.iriskulova@gmail.com

The scientific electronic journal "Innovation Science and Technology" has been included in the list of scientific publications recommended for the publication of main scientific results of dissertations for the award of PhD and DSc degrees in economics and technical sciences, in accordance with the Resolution No. 370 of the Presidium of the Higher Attestation Commission of the Republic of Uzbekistan, dated May 8, 2025.

Editorial board:



Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,
Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor



Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna,
Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor



Cham Tat Huei,
Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)



Muhammad Imran Sadiq
Doctor of Philosophy in Economics (PhD),
Professor, Malaysia



Ahmed Aziz Ismail
Doctor of Technical Sciences (DSc),
Professor (Egypt)



Lee Chin
Doctor of Philosophy in Economics (PhD),
(Malaysia)



Asongu Simplicé
Doctor of Philosophy in Economics (PhD),
Cameroon



Rui Dang
Doctor of Chemistry (DSc), Professor, China



Zahoor Ahmed
Doctor of Philosophy in Economics (PhD), Turkey



Shujaat Abbas
Doctor of Philosophy in Economics (PhD), Russia



Tina A Coffelt
Doctor of Philosophy in Educational Sciences
(PhD), USA



Judy B. Smetana
Doctor of Philosophy in Economics (PhD), USA

CONTENTS

Decoding the crypto ecosystem: a bibliometric and conceptual study of blockchain assets and their alignment with sustainability goals.....	6
Sultonov Ikromjon Shukhratjon ugli, Dr Maya Sari SE MM, Adon Asep Miftahuddin	
Taxation in transition: a comparative analysis of indonesia and uzbekistan's tax systems (2011–2023).....	15
Masharipov Azizbek Murodjon ugli, IDA Farida Adi Prawira, Prof, Dr. Alfira Sofia	
Traditional methods of assessing the effectiveness of women's entrepreneurship.....	21
Raxmonova Aziza Tolibovna	
Educational costs.....	27
Usanova Mekhriniso Norkobil kizi, Toni Heryana	
Sustainable development of foreign investments in uzbekistan's economy: analysis, challenges, and opportunities.....	32
Khusanova Khojiyabonu Rovshan kizi, Denny Andriana	
The role of transportation in improving the export potential of the national economy.....	40
Narziyev Umidjon Baxrillayevich	
Methodology of teaching english: traditional and modern approaches.....	46
Ravshanova Ziyoda Qahramon Qizi, Xoliqova Dilafruz Shuhratovna	
Work-life balance, teacher wellbeing, and educational outcomes: a cross-national analysis toward achieving sdgs 3 and 4.....	50
Rikhsiboev Azamat Murodali ugli, Dr.askolani, SE.,MM, Annisa Ciptagustia, SE.,M.Si	
Simple innovations and firm performance in transitional economies: a qualitative case study of artel electronics in uzbekistan.....	59
Alloyorov Xondamir Nurmurod ugli, Dr. Mokh. Adib Sultan ST, MT	
Integrating data science into innovative approaches to working capital management for enhancing financial stability in enterprises.....	68
Doniyor Khoshimov, Ilmurod Kungratov Kuzibay ugli	
Characteristics of interstitial nephritis against the background of uropathy in children.....	76
Aralov Mirza Djurakulovich	
Ways and methods of using renewable energy sources in industrial enterprises.....	79
Bobobekov Ergash Abdumalikovich	
Understanding the role of accounting reports in financial control: evidence from uzbek enterprises.....	84
Abdimurodov Ulug'bek Olimjonovich, Aristanti Widyaningsih, Toni Heryana	
Nalyzing the impact of investment volume in the tourism sector on the regional gross domestic product (case study of samarkand region).....	89
Shukurov Ikrom Abdurashitovich	
Types of accommodation facilities in uzbekistan and their characteristics.....	92
Ikramov Akbar	
Controlling inflation in uzbekistan: the role of monetary and fiscal policy.....	97
Bahodirov Jahongir, Omonova Navruzoy	
Digital banking: is it possible to open a digital bank in uzbekistan.....	102
Abdushukurov Dilshodbek Shovkat ugli, Dr Maya Sari SE MM	
From soviet legacy to global identity: the brand strategy of uzauto motors.....	109
Movlonov Bekzod Baxtiyor Ugli, Prof. Dr. Vanessa Gaffar, Arief Budiman	
Revisiting the returns to education and gender wage disparities in indonesia: evidence from IFLS4.....	115
Kurbonov Davronbek Sherali ugli, Dr. Mokh. Adib Sultan ST, MT, Dr. Adon Asep Miftahuddin	
Comporative analysis of accounting in indonesia and uzbekistan.....	122
Abdimuradov Shohjahon Olimjon ugli, Aristanti Widyaningsih, Tony Heryana, Yusupov Komaliddin Bakhtiyor Ugli	

Problems in the accounting of long-term assets and their solutions based on international experience.....	126
Rizakulov Abdurauf Abdimutalibovich	
Analysis of the economic efficiency and market competitiveness of BMB za'faron brand products.....	131
Mirgulom Usmanov	
Issues of improving the essence, classification, and identification criteria of extra-large and large taxpayers.....	134
Xushatov Nuriddin Maxmatqulovich	
Analysis of practical proposals for further improvement of tax administration in uzbekistan.....	141
Umid Kh. Normurzayev	
Modern directions for developing a service provision system based on digital platforms.....	149
Berdiqulova Madina Zokir qizi, S.B.Boboqulov	
The impact of online motivation and trust on purchase intention in social media: a qualitative study among upi students	154
Akhmadov Javokhir Abror ugli, Vanessa Gaffar, Arief Budiman	
Place and analysis of active operations in the activities of commercial banks	161
Sulxonberdiyeva Shodiya Shuxrat qizi, K.Karimova	
Modernized heat receiver to improve thermal efficiency of parabolic trough collector	165
Nurmamat Umaraliev, Yodgor Akbarovich Yusupov	
Credibility and conscience: the new triggers of gen Z's purchase behavior	170
Ahmad Farid Jamali	
Improving the mechanisms of budgetary financing in higher education institutions.....	175
Gulshat Karlibaeva	
Effectiveness of innovations used in ecological hotels	179
Abidova Dilfuza Igamberdievna	
Yashil budget siyosatining ilg'or tajribalari.....	184
Ubaydullaev No'monjon Isroilovich	

YASHIL BUDJET SIYOSATINING ILG'OR TAJRIBALARI

Ubaydullaev No'monjon Isroilovich

TDIU mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Maqolada yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda institutsional, iqtisodiyot tarmoqlari va yashil mezonlar asosida barqaror iqtisodiyotni shakllantirishga e'tibor berish maqsadga muvofiqligi tadqiq etilgan. Tadqiqotlar asosida yashil iqtisodiyot kategoriyasining rivojlanishi va unga nisbatan yondashuvlarning fundamental jihatlari tizimlashtirilgan. Yashil yondashuvni shakllantirishda yashil iqtisodiyot elementlari uchligi ishlab chiqilgan. Shuningdek, yashil iqtisodiyot va an'anaviy iqtisodiyotning o'zaro solishtirma tahlili amalga oshirilgan.

Kalit so'zlar: qayta tiklanuvchi energiya, yashil iqtisodiyot, resurslarni qayta ishlash, tabiiy kapital, yashil yondashuv, barqaror rivojlanish, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik ko'rsatkichlar.

Abstract: The article examines the relevance of shaping a sustainable economy through institutional frameworks, economic sectors, and green criteria in the development of the green economy. Based on research findings, the fundamental aspects of the evolution of the green economy concept and approaches to it are systematized. A triad of green economy elements has been developed to form a sustainable green approach. Furthermore, a comparative analysis between the green economy and the traditional economy has been carried out.

Key words: renewable energy, green economy, resource recycling, natural capital, green approach, sustainable development, economic, social and environmental indicators.

Аннотация: В статье исследуется целесообразность формирования устойчивой экономики на основе институциональных факторов, отраслей экономики и «зелёных» критериев в развитии «зелёной» экономики. На основе проведённых исследований систематизированы фундаментальные аспекты развития категории «зелёной экономики» и подходов к ней. Разработана триада элементов «зелёной экономики» для формирования экологически устойчивого подхода. Также проведён сравнительный анализ «зелёной» и традиционной экономики.

Ключевые слова: возобновляемая энергия, зелёная экономика, переработка ресурсов, природный капитал, зелёный подход, устойчивое развитие, экономические, социальные и экологические показатели.

KIRISH

Yashil budjet siyosati o'tgan asrning oxirlariga kelib jadal rivojlana boshladi. Mazkur yondashuvning rivojlanishi barobarida hukumatlar tabiatga zarar yetkazishni kamaytirishga qaratilgan islohotlarni amalga oshirishni nazarda tutdi. Hozirgi kunga kelib, ko'plab rivojlangan iqtisodiyotlarda karbon emissiyasini qisqartirishga qaratilgan yo'nalishlarga ustuvorlik berilayotgani ham bejiz emas. Bu borada, Yevropa Ittifoqi va boshqa rivojlangan mintaqalarda yashil siyosatga doir bir qator qoidalar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilgan.

Hozirgi kunda ko'plab mamlakatlar karbon emissiyasini qisqartirgan bo'lsada, davlatlar o'rtasidagi farqlar hanuz saqlanib qolayotgani kuzatilmoqda. So'nggi 50 yillikda karbon emissiyasining sezilarli o'sib kelayotgani va hozirgi iqlimga doir siyosat iqlim o'zgarishini o'rtacha 2°C dan kam oshishiga yordam bera olmasligini qayd etish lozim. 1961–1990-yillar davomida global miqyosda o'rtacha haroratning 0,8°C ga oshgani ham kuzatilgan [1]. Shuningdek, 2022-yilda AQShdagi issiqxona gazlarining 80 foizidan ortiq qismi insonlarning tabiatga bo'lgan ta'siri natijasida shakllanganini ko'rish mumkin [2].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

V. Xenis va hamkorlari tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotda ESG tamoyillarini tahlil qilishga qaratilgan ilmiy xulosalar shakllantirilgan. Ularning izlanishlari natijasida ESG asosida qiymat yaratishning beshta asosiy yo'nalishi ajratib ko'rsatiladi. Birinchidan, yuqori o'sish imkoniyati — iste'molchilarning qariyb 70 foizi ESG tamoyili asosida ishlab chiqarilgan mahsulotlarga 5 foiz qimmatroq to'lashga tayyorligi qayd etiladi. Ikkinchidan, xarajatlarni kamaytirish imkoniyati — bu yo'nalishda tabiiy kapitalni tejash orqali umumiy xarajatlarni qisqartirish mumkinligi ko'rsatib o'tiladi. Uchinchidan, regulyativ va yuridik xatarlarni kamaytirish imkoniyati — kompaniya foydasining qariyb uchdan bir qismi davlat bilan bo'ladigan munosabatlar natijasida shakllanishi inobatga olinishi zarurligi ta'kidlanadi. To'rtinchidan, xodimlar faoliyat samaradorligini oshirish imkoniyati — ayniqsa

Fortune's 100 Best Companies ro'yxatiga kirgan kompaniyalarning aksiyalari rentabelligi 2,3–3,8 foiz yuqori ekani e'tirof etiladi. Beshinchidan, qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish va chiqindilarni qayta ishlash kompaniya faoliyatining barqarorligini oshiradi hamda yopilish ehtimolini kamaytiradi [3].

T. Li va boshqalarning izlanishlari ESG tamoyillarining iqtisodiyotning moliyaviy manfaatlarini bilan bir qatorda ekologik, ijtimoiy va boshqaruv standartlarini uyg'unlashtirishga xizmat qilishini asoslab beradi. Ularning tadqiqotida ESG tamoyillarining o'zaro ta'siri, iqtisodiy samaradorlikni oshirish, xatarlarni boshqarish hamda o'lchov va mezonlarni joriy etish kabi global tendensiyalar batafsil yoritilgan [4].

P. Rau va hamkorlari esa ESG (Environmental, Social, Governance) va CSR (Corporate Social Responsibility) konsepsiyalarini investorlarga, institutlarga va korporatsiyalarga oid qiyosiy yondashuv asosida o'rgangan. Tadqiqotda ESG reytinglari va indekslaridagi tafovutlar sabab ayrim kamchiliklar mavjudligi ta'kidlanadi. Shuningdek, institutsional investorlarga bo'lgan ishonch bu tamoyillarni joriy etishda muhim o'rin tutishi qayd etiladi. ESG tamoyillaridan foydalanish esa kompaniyalar uchun moliyalashtirish imkoniyatini kengaytirish, shaffoflik va hisobdorlikni oshirish, shuningdek, korporativ samaradorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatishi bilan ahamiyatlidir [5].

G. Giese va boshqalarning tahlillarida esa ESG ta'sirini belgilovchi uch asosiy risk turi — tizimli risk, sezgirlik riski va real jarayonlar riski ajratib ko'rsatiladi. Ularning fikriga ko'ra, ESG bugungi kunda muhim moliyaviy ko'rsatkich darajasiga ko'tarilgan bo'lib, kompaniyalarning bozor qiymatini va umumiy samaradorligini yaxshilashga xizmat qilmoqda. Shu asosda ESG tamoyillari moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga qaratilganligi bilan o'z ahamiyatini yanada mustahkamlab bormoqda [6].

Umuman olganda, ESG standartlarini baholashga qaratilgan ilmiy izlanishlarda, avvalo, uning moliyaviy samaradorlikdagi roli hamda yashil iqtisodiyot elementlarini tizimlashtirishdagi ahamiyati e'tiborga olinmoqda. Tadqiqotlarning ko'pchiligida ESG tamoyillarini hukumat darajasida qo'llash, mamlakatning yashil yondashuvlarini tahlil qilish hamda xalqaro me'yorlar bilan uyg'unlashtirish zarurligi ta'kidlanadi. Shu jihatdan, yashil iqtisodiyot tamoyillarini keng qamrovli tarzda o'rganish, ularni baholash va tizimlashtirish ilmiy hamda amaliy ahamiyatga ega.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot metodologiyasi yashil iqtisodiyot va ESG tamoyillarini baholashga qaratilgan kompleks yondashuvga asoslanadi. Avvalo, nazariy tahlil orqali yashil siyosatning rivojlanish bosqichlari hamda xalqaro tajribalar o'rganildi. Ikkinchi bosqichda statistik ma'lumotlar asosida O'zbekiston va rivojlangan mamlakatlar ko'rsatkichlari qiyosiy tahlil qilindi. Bu jarayonda karbon emissiyasi, qayta tiklanuvchi energiya ulushi, chiqindilarni qayta ishlash va ijtimoiy ko'rsatkichlar mezon sifatida tanlandi. Shuningdek, Jahon banki, BMT va Yevropa Ittifoqi ma'lumotlaridan foydalanildi. Tadqiqotda solishtirma va tizimli tahlil usullari, shuningdek, grafik va jadval shaklidagi vizual ko'rsatkichlardan keng foydalanildi. Natijada, yashil iqtisodiyotni baholash mezonlari va ularni O'zbekiston sharoitida tatbiq etish imkoniyatlari ilmiy asosda aniqlab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotimizning avvalgi qismlarida qayd etilganidek, hukumatlarning yashil siyosati o'tgan asrning oxirgi o'n yilliklarida bosqichma-bosqich shakllanib bordi. Shu jarayonning mantiqiy davomi sifatida 2004-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan ESG (Environmental, Social va Governance) tushunchasini o'z ichiga olgan dastlabki hisoboti va standartlari e'lon qilindi. Mazkur standartlarning joriy etilishi moliya institutlari va investorlarning faoliyatini faqat moliyaviy ko'rsatkichlar orqali emas, balki ekologik, ijtimoiy va boshqaruv mezonlari asosida baholash zaruratini belgilab berdi. Bu yondashuv investitsiya jarayonlarida ekologik oqibatlarini kamaytirish, ijtimoiy farovonlikni ta'minlash va korporativ boshqaruvni takomillashtirishga xizmat qildi.

Bugungi kunda mazkur metodologiyaning ko'rsatkichlari asosida yashil mas'uliyatni oshirishga bo'lgan tendensiyalar tobora keng tarqalmoqda. Ayniqsa, rivojlangan davlatlarda ESG tamoyillari hukumat siyosati va yirik moliyaviy institutlar faoliyatida amaliy mexanizm sifatida tatbiq qilinmoqda. Shu jihatdan ESGning uch asosiy tamoyili mavjud ekanligini alohida ta'kidlash lozim:

Birinchi, E – Environmental (Ekologik) o'qi. Ushbu tamoyil karbon emissiyasini kamaytirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etishga qaratilgan. Masalan, energiya tejankor texnologiyalarni qo'llash orqali tabiiy kapitalni asrash va chiqindilarni kamaytirish davlat siyosatining muhim ustuvor yo'nalishiga aylanmoqda.

Ikkinchi, S – Social (Ijtimoiy) o'qi. ESGning ijtimoiy jihati yashil iqtisodiyotni shakllantirish jarayonini kengroq ma'noda izohlaydi. Bu nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilish, balki aholining turmush darajasini yaxshilash, ijtimoiy tenglikni ta'minlash va barqaror ish o'rinlarini yaratish bilan ham chambarchas bog'liq. Shunday qilib, ESGning ijtimoiy mezonlari farovon jamiyatni shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Uchinchidan, G – Governance (Boshqaruv) o'qi. Yashil siyosatni muvaffaqiyatli amalga oshirish samarali va shaffof boshqaruvni talab etadi. ESGning mazkur komponenti hisobdorlik, korrupsiyaga qarshi kurashish, mas'uliyatli boshqaruvni yo'lga qo'yish va davlat hamda xususiy institutlar faoliyatida shaffoflikni ta'minlashga qaratilgan. Natijada, iqtisodiy va moliyaviy siyosat barqaror rivojlanishga xizmat qiluvchi mustahkam institutsional asosga ega bo'ladi.

2004 yilda BMT, Jahon banki va Shveysariya hukumati hamkorligida tayyorlangan "Who Cares Wins" nomli hisobotda ESG mezonlarini moliyaviy siyosatga tatbiq etishning zarurligi ta'kidlandi [7]. Unda investorlarning qaror qabul qilish jarayonida ESG ko'rsatkichlarini majburiy element sifatida inobatga olish lozimligi qayd etilgan. Shu bilan birga, 2006-yildan boshlab BMT tomonidan Responsible Investment Principles (Mas'uliyatli investitsiya tamoyillari) tashabbusi ilgari surildi. Bugungi kunda dunyo bo'yicha 5000 dan ortiq moliyaviy institutlar va investorlar ushbu tamoyillarni qo'llab-quvvatlamoda. Bu esa ESG yondashuvining global moliya bozorida tobora kengayib borayotganidan dalolat beradi.

1-jadval. ESG mamlakat miqyosidagi mezonlari [8]

Environmental (ekologik mezonlar)				
No	Ko'rsatkich nomi	O'lchov mezon	Me'yor	Izoh
1	SO ₂ chiqindisi/ kishi	tonna CO ₂ /kishi/yil	≤ 5 t (rivojlangan iqtisodiyot: < 3 t)	Iqlim o'zgarishidagi muhim ko'rsatkich
2	SO ₂ jami emissiyasi	mIn tonna/yil	—	YAIM va aholi ga bog'liq
3	Qayta tiklanuvchi energiya ulushi	foiz / milliy elektr hajmida	≥ 30 foiz (EI standarti)	20% kam bo'lsa ijobiy
4	Chiqindilarni qayta ishlash darajasi	foizda	≥ 50% (Yaponiya, Germaniya)	Aholi va sanoat bo'yicha
5	O'rmonlar maydoni o'zgarishi	foiz / 10 yilda	≥ 0 foiz (oshish)	Manfiy bo'lsa ekotizim xatar ostida
Social (ijtimoiy mezonlar)				
6	Qashshoqlik aholi ulushi	≤ 10%	Rivojlangan iqtisodiyotda 5 foiz atrofida	
7	Gender tengligi	ball (0–1)	> 0.85	1 — to'liq tenglik, 0 — tengsizlik
8	Ta'lim darajasi (o'rta va yuqori)	foiz / 25 yoshdan yuqori aholi	> 80%	UNESCO mezon
9	Tibbiy xizmatlar qamrovi	aholi ulushi	> 90%	Davlat kafolati asosida
10	Xavfsizlik (joniga qasd qilish)	soni / 100,000 kishi	≤ 5	Yaponiya: 0.3, AQSh: ≈ 6
Governance (boshqaruv mezonlar)				
11	Korrupsiyaga qarshi kurash indeksi (CPI)	ball (0–100)	> 60	0 dan 100 gacha (kamayish tartibida)
12	Qonun ustuvorligi	ball (0–1)	> 0.80	WJP indeks mezon
13	Hukumat samaradorligi	ball (–2.5 dan +2.5 gacha)	> +1.0	World Bank Governance Indicators asosida
14	Soliq shaffofligi/ budjet ochiqligi indeksi	ball (0–100)	> 70	Open Budget Index

Mazkur standartning joriy etilishi bilan mamlakatlarning yashil siyosatni amalga oshirishdagi islohotlarini baholashga imkoniyat yaratiladi. Bu bilan esa, murakkablik kasb etayotgan jihatlarni aniqlash asosida tizimli takliflarni ishlab chiqish imkoniyati tug'iladi. Bizningcha, yashil iqtisodiyotni amalga oshirishda uning o'lchov mezonlarini ham ishlab chiqilishi dolzarblik kasb etadi. Yashil siyosatning moliyaviy ahamiyatini baholashda yashillikni belgilab beruvchi indikatorlarni joriy etish ushbu muammolarni hal etishga xizmat qiladi, deb o'ylaymiz.

Ushbu standartga doir bo'lgan ko'rsatkichlar mezonlarining ayrim xususiyatlarini 1-jadvalda keltirilgan raqamlarda yanada aniqroq ko'rishimiz mumkin. Mazkur jadvaldan ko'rinib turibdiki, mamlakatda yashil siyosatni ishlab chiqishda e'tibor berilishi lozim bo'lgan jihatlar aks ettirilgan. Yalpi ichki mahsulotning yaratilishida quyidagi jihatlar to'g'ridan-to'g'ri ifoda etadi:

XULOSA VA TAKLIFLAR

Birinchiidan, karbon emissiyasining qisqartirilishi. Bunda issiqxona va sanoat ishlab chiqarilishidan karbon chiqindilarining hajmi oshib borishini oldini olish nazarda tutilgan.

Ikkinchiidan, chiqindilarni qayta ishlashga qaratilgan loyihalarni kengaytirish va tabiiy resurslardan foydalanishni kamaytirishni o'zida ifoda etish muhim hisoblanadi.

Uchinchiidan, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini kengaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish.

To'rtinchiidan, mavjud yashillik maydonlarini, jumladan o'rmon hududlarini saqlash va kengaytirishga qaratilgan tadbirlarni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Fikrimizcha, ijtimoiy siyosatning tarkibiy bo'g'ini sifatida ijtimoiy mezonlar ham alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlari bilan qamrab olinishi muhim mezonlardan bo'lib sanalmoqda. Ta'lim xizmatlari bilan qamrab olishda ta'lim bosqichlarining xususiyatlarini inobatga olish va unda xususiy sektor ulushini ham muvofiqlashtirish o'ziga xos ahamiyatga ega hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. CO₂ and Greenhouse Gas Emissions. <https://ourworldindata.org/co2-and-greenhouse-gas-emissions>
2. Carbon Dioxide Emissions <https://www.epa.gov/ghgemissions/carbon-dioxide-emissions>
3. Henisz, W., Koller, T., & Nuttall, R. (2019). Five ways that ESG creates value. *McKinsey Quarterly*, 4, 1-12.
4. Li, T. T., Wang, K., Sueyoshi, T., & Wang, D. D. (2021). ESG: Research progress and future prospects. *Sustainability*, 13(21), 11663.
5. Rau, P. R., & Yu, T. (2024). A survey on ESG: investors, institutions and firms. *China Finance Review International*, 14(1), 3-33.
6. Giese, G., Lee, L. E., Melas, D., Nagy, Z., & Nishikawa, L. (2019). Foundations of ESG investing: How ESG affects equity valuation, risk, and performance. *Journal of portfolio management*, 45(5), 69-83.
7. IFC Advisory Services in Environmental and Social Sustainability. Who Cares Wins, 2004–08 ISSUE BRIEF. <https://documents1.worldbank.org/curated/en/444801491483640669/pdf/113850-BRI-IFC-Breif-whocares-PUBLIC.pdf>
8. Интернет маълумотлари асосида тадқиқотчи томонидан ишлаб чиқилган

Proofreader: Zokir ALIBEKOV

Layout and Designer: Oloviddin Sobir ugli

2025. № 6

© When materials are reproduced, the INNOVATION SCIENCE AND TECHNOLOGY journal must be cited as the source. Authors are responsible for the accuracy of the information in materials and advertisements published in the journal. Editorial opinions may not always align with those of the authors. Submitted materials will not be returned to the editorial office.

To publish articles in this journal, you may submit articles, advertisements, stories, and other creative materials through the following links. Materials and advertisements are published on a paid basis.

You may subscribe to the journal at any time using the following details. Once subscribed, please send a screenshot or photo of your payment confirmation to our Telegram page @iqtisodiyot_77. Based on this, we will send the latest issue of the journal to your address each month.

“The journal “INNOVATION SCIENCE AND TECHNOLOGY” has been registered by the Agency for Information and Mass Communications under the Administration of the President of the Republic of Uzbekistan from 09.10.2024 under the registration number №390637. License number: C-5669633. PNFL: 30407832680027

Our address: Tashkent city, Yunusobod district, 19th block,
House 17.



Acceptance of articles
Published every
monthly



Directions
Social, economic, political,
technological, scientific

 **Scopus || Scientific electronic journal specializing in Scopus**

CERTIFICATE NUMBER: №390637

**ORDER NUMBER ACCORDING TO
THE LICENSE REGISTER: C-5669633**

CONTACT:

-  Contact us
+998 97 748 70 03
-  Telegram channel
t.me/scopus_IST2100

 Journal official website
<https://ist-journal.uz/index.php/IST>